

SHAXSDA QOBILYATLAR RIVOJLANISHINING INDIVIDUAL PSIXALOGIK XUSUSIYATLARI

Yo'ldoshyev Sardorbek Asliddin o'g'li-O'zbekiston Milliy universitetining
Jizzax filiali, o'qituvchi

sardorbekyoldoshyev@gmail.com

Otaqulova Sarvinoz Sunnatilla qizi-O'zMUJizzax fililali talabasi

Annotatsiya: Shaxsning barcha individual xususiyatlari faoliyat jarayonida namayon bo'ladi. Hozirgi vaqtda yoshlarda ijodiy (ijodkorlik) inson faoliyatining turli sohalarida yangi g'oyalarni yaratishga qodirdir. Qobilyat va qiziqish shaxsning asosiy individual xususiyatidir. Maqolada qobilyat va uning individual psixologik xususiyatlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Qobilyat, layoqat, iste'dod, maxsus qobilyat, umumiy qobilyat.

Bugungi kunda yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan sanaladi. Barkamol shaxs kamoloti uning ta'lim-tarbiyasiga bevosita bog'liq, hamda ularning qobilyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.)

Shaxsning idividual psixalogik xususiyatlaridan qobilyatga to'xtaladigan bo'lsak kishilar turli sohalaridagi faoliyatlarida – mehnat, o'yin, o'qish va ijodiyotda biror narsa tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir kishi tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo'lsa, boshqalarniki esa kam unum bo'ladi. Ba'zi odamlar o'z ishlarida ijodiy, orginal usullarni ko'proq qo'llasa, ba'zi bir kishilarning ishlaridan esa bunday usullar kamroq ko'rinadi. Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobilyatlari qandayligini aniqlab olamiz shunday qilib qobilyat o'zi nima?

Har bir inson ma'lum bir qobilyatga ega faqat bu qobilyatni yuzaga chiqara bilish kerak. Qobilyat bu- shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni eggallay olishini ta'minlaydigan yakka psixalogik

xususiyatlaridir. Kishilar qobilyati nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'qish faoliyatlarida tegishli qobilyat talab etadi. Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobilyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobilyat turlari bo'ladi. Inson qobilyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir har qaysi odam ma'lum darajada kishi faoliyatining barcha turlariga layoqatli bo'ladi, lekin shu bilan bir qatarga, ko'pchilik faoliyatining bir necha sohasidan yoki katta bir sohasida salohiyat ortiqroq bo'ladi. Qobilyatni yuzaga chiqarishimiz uchun eng avvalo insoning faolligi katta ro'l o'ynaydi. Bolalarning qobilyatiga keladigan bo'lsak uning ota-onalari, ustozlari va o'z imkoniyatlari mana shu omillar mavjud bo'lgandagina bolada qobilyatlari yuzaga chiqishi mumkin.

Faoliyatning biror turi sohasida qobilyatning paydo bo'lish darajasi muayyan kishining individual xususiyati bilan xarakterlanadi. Qobilyatning bunday xususiyatlari maktab bolalarida ham ko'rinadi. Ba'zi bir o'quvchilar o'zlarining zehni o'tkirligi bilan, boshqalari poetik asarlarni aniq idrok qilishlari bilan, boshqasi esa, texnik ijodkorligi bilan, o'zining laboratoriya mashg'ulotlariga usta bo'lish kabi xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Ayrim kishilarning qobilyati birgina sohada emas, balki bir necha sohalarda yaqqol namayon bo'ladi. Bunday kishilar har tamonlama qobilyatli kishilardir.

Shaxsning rivoj topib, qobilyatlarida namayon bo'ladigan tug'ma xususiyatlari iste'dod deyiladi. Kishining iste'dod darajasini undagi muayyan qobilyatlarning qanchalik tez o'sishiga, bilim malakalarni qanchalik egallashiga hamda o'z ishini qanchalik muvaffaqiyat bilan samarali bajarishga qarab aniqlaymiz. Qobilyat va iste'dodda kishining aqli(intellekti) ham, ya'ni idrok va kuzatuvchanligining ,tafakkur, xayol, nutq va xotiraning qanchalik o'sganligi ham ko'rinadi. Aql faoliyati diqqat va iroda bilan bog'liq bo'lgani uchun qobilyat va iste'dod diqqat va irodaning qanchalik kuchli va barqarorligida ham ko'rinadi.

Kishining qanchalik kuzatuvchan ekanligi, bilimlarni qanday o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarni qanday hal qilishi ,qanday qimmatli yangiliklar

yaratishi , o‘z bilim va malakalarni turmushga qanday tadbiiq qila bilishdan ham kishining qobilyati va iste’dodini bilish mumkin. Har bir odamning qobilyat va iste’dodi taraqqiyot maxsulidir .

Insonning qobilyati uning tug‘ma layoqati asosida , muhitga bog‘liq ravishda olayotgan ta’lim –tarbiyasiga qarab ,shuningdek kishining o‘z ustida ishlashi bilan bog‘liq holda o‘sib , kamol topib boradi. Inson o‘z mohiyati bilan ijtimoiy tabiiy zotdir. Shuning uchun ham unga xos bo‘lgan barcha ruhiy holat va jarayonlar tabiiy kuchga, hayotiy kuchga egadir. Bu tabiiy kuchlar har bir insonga ota – onadan bevosita o‘tadi va ular instinktlar, tug‘ma layoqatlar tariqasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namayon bo‘ladi.

Tug‘ma layoqat –tayyor , kamolotga yetgan qobilyat emas, balki qobilyatning o‘sishi uchun faqat tabiiy zamindir, u kelgusida qobilyatga aylanmog‘i mumkin. Bunday imkoniyatlar faqat tegishli sharoit mavjud bo‘lgandagina ro‘yobga chiqa oladi. Ayniqsa layoqat bolalarda kuchli rivojlangan bo‘ladi. Qobilyat deganda bizning yana ko‘z oldimizga geniallik (geniy) va talantlik ham kelishi mumkin.

Geniallik (geniy) deb, biz shunday kishilarni aytamizki, ular nihoyatda katta masalalarni hal qiladilar, butun bir sinf yoki xalqlar uchun, barcha insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, misli ko‘rilmagan qimmatli narsalar yaratadilar. Bunda ular yaratgan narsalar tarixda goyo burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi, tarixni oldinga progressiv tamon harakatga keltiruvchi madad bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, biz Alisher Navoiyni genial shoir , shuningdek komil inson ham deb atashimiz bejiz emas, chunki u shunday asarlar yaratdiki, uning asarlari dunyoda kelishi bilan o‘zbek adabiyotida o‘zbek tili taraqqiyotida yangi bir davr boshlandi. Talant degan sozga keladigan bo‘lsak, shunday odamlarga aytiladiki, ular ma’lum sohada murakkab nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga, yangilik va progressiv ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatli narsalar yaratishga qodir bo‘ladilar. Talantli odam, talantli yozuvchi va talantli shoir, talantli rassomlarni sozsiz tushunishimiz mumkin bo‘ladi albatta. O‘zi talantli insonlar bilimlarni tez, muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirib oladigan va shu bilimlarni turmushda, o‘z

faoliyatlarida tog'ri tadbiiq qiladigan odamlarga ham aytiladi. Talantli o'quvchi, talaba, skripkachi, pianist va talantli muhandis deganda biz buni ana shu ma'noda tushunamiz.

Geniy- bu yangilik yaratuvchi va kashf qiluvchi odam, talantli deb bu yangiliklarni tez o'zlashtirib oladigan va shu bilimlarni turmushda tadbiiq qilib, ularni oldinga suradigan odam deyishimiz mumkin. Har bir geniy talantli ham bo'ladi, biroq har bir talantli odamni genial deb bo'lmaydi.

Talantli va genial kishilarning juda ko'pi har tamonlama qobilyatli bo'lganlar. Ularga Aristotel, Leonardo da Vinchi, Lomonosovlar, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ulug' insonlarni kiritishimiz mumkin.

Shuningdek qobilyatlarning juda ko'p turlari mavjud. Hozirgi zamon psixologiyasida inson qobilyatlarining tasniflash turlari ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning ichidagi umumiy tasniflashga ko'ra qobilyatlar ikki guruhga bo'linadi. Umumiy va Maxsus qobilyatlarga bo'linadi. Bu guruhlarning har biri oddiy va murakkab, guruh ichida esa alohida turlarga bo'linadi.

Umumiy boshlang'ich qobilyatlar- bu qobilyatlar turli darajadagi ifodalanishda bo'lsada, barcha odamlarga xos. Ularga psixik aks ettirishning asosiy shakllari: sezish, idrok qilish, esda olib qolish, qayg'urish, fikrlash, xayol surish, qaror qabul qilish va amalga oshirish kiradi.

Maxsus boshlang'ich qobilyatlar- bu qobilyatlar barcha odamlarga xos bo'lmay, ular psixik jarayonlarning qandaydir sifat tomonlarning ma'lum ifodalanishini taqozo etadi. Bu qobilyat o'z ichiga quyidagilarni oladi.

1. Ko'z bilan chamalash – bu ko'rish orqali idrok qilinadigan ob'ektning kattaliklarini, ular o'rtasidagi va ulargacha bo'lgan masofalarning turli aniqlikda idrok qilish, baholash va taqqoslash qobilyati, ya'ni ko'rish orqali idrok qilishning ma'lum sifatidir. 2. Musiqaviy eshitish qobilyati- bu musiqali tovushlarni farqlash va ularni aniq joriy etish qobilyatida namoyon bo'ladigan eshitish orqali idrok qilishning ma'lum sifati sanaladi. Bunday qobilyatlar ta'lim jarayonida istedod nishonalari asosida rivojlanadi. 3. Umumiy murakkab qobilyatlar- umumisoniy

faoliyat turlari: mehnat, ta'lim, o'yin, bir-biri bilan muloqotga bo'lgan qobiliyatdir. Ular u yoki bu darajada barcha odamlarga xos. Bu guruhga mansub qobiliyatlarning har biri shaxs xossalariining murakkab tarkibini tashkil etadi. 4. Tabiiy qobiliyatlar odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish, xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashkil etadi. Insondagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir – biridan farq qiladi. 5. Maxsus insoniy qobiliyatlar ijtimoiy- tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi. 6. Umumiy qobiliyatlar insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat. 7. Maxsus qobiliyatlar deb inson yutuqlarini amalga oshirish uchun alohida turdagi iste'dod va uning rivoji zarur bo'lgan maxsus faoliyat turlarida aniqlaydigan qobiliyatlar tushuniladi. Bunday qobiliyat turlariga: musiqa, lingvistik, texnikaviy, badiiy, adabiy, sportga bo'lgan qobiliyatlarni kiritish mumkin.

A.Maslouning fikricha ijodkorlik har bir insonda tug'ma bo'lgan, lekin muhit ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalishdir. Qobiliyatlar shuningdek o'quv va ijodkorlik qobiliyatlariga bo'linadi. Ular birinchidan - o'qitish samarasini, inson tomonidan bilim, malaka va konikmalarning o'zlashtirilishi belgilashi bilan, boshqalarning kashfiyotlar, moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi shakllarini yaratish imkoniyatini belgilash bilan farq qiladi.

Ikkinchidan-ijodkorlik-shaxsning ijobiy qobiliyatlari, g'ayrioddiy qobiliyatlarini yaratish, an'anaviy fikrlash shakllaridan chetga chiqish, muammoli vaziyatlarni tezda hal qilish qobiliyati. Ijodkorlik prinsipal jihatdan yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorgarlik bilan tavsiflanadi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tarkibiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). SUITSIDAL HOLAT VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7726>
2. Yuldashev, S., & Arakulov, G. (2023). ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), 81-88.
3. Джуманов, Ш.З. (2018). Бўлажак ўқитувчининг шахс бўлиб шаклланишида коммуникатив қобилиятнинг моҳияти. *FarDU–ilmiy xabarlar.–Фаргона*, 5, 113-116.
4. Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). O‘QUVCHI XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8389>
5. Asliddin o‘g, Y. L. S. (2022). PSIXOLOGIK ZO ‘RAVONLIK VA KIBERBULLING. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 62-66. Yuldashev
6. S. (2021). THE PEDAGOGICAL ESSENCE OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A TEACHER IN MILITARY EDUCATION. International Journal of World Languages, 1(2).
7. Аракулов, Г. (2022). Pedagogik va psixologik mashg ‘ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarda muhim fenomen sifatida. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 54-56.
8. Yo‘ldoshyev, S. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG‘LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8390>

- 9.Аракулов, Г. (2022). Факторы, влияющие на формирование агрессии у подростков. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 106-109.
- 10.Джуманов Ш. ЎҚИТУВЧИ ВА ТАЛАБАЛАР ПЕДАГОГИК МУНОСАБАТЛАРИНИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 77-82.
- 11.Холова, М., & Аракулов, Г. (2022). Zamonaviy bilimlarni egallashda pedagogik psixologiyaning ahamiyati. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4), 219-221
- 12.Abduvakilovna, K. U., & Xusanovna, R. X. (2022). O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA’SIRI. *Journal of new century innovations*, 19(2), 91-94.
- 13.Abduvakilovna, K. U., & Baxriddin o‘g‘li, X. J. (2022). O‘SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 19(2), 87-90.
- 14.Abduvakilovna, K. U. (2022). OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI. *Journal of new century innovations*, 19(2), 95-98.
- 15.Karakulova, U., Berdiyorova, S., & Rejebbayeva, A. (2023). O ‘SMIRLIK DAVRIDA NOMOYON BO ‘LADIGAN DEVIANT XULQ-ATVOR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2)
- 16.Otamuratov R.U. Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarning aloqasi., Ташкентский государственный стоматологический институт., “Med Union” медицинский научно-практический журнал. Volume 2, Issue 1, 2023
- 17.Otamuratov R., Otamuratova S. O‘smirlarda kasbiy o‘zligini anglashiga xavotirlanishning ta’siri., O‘zMU XABARLARI., MIRZO ULUG‘BEK

NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI., 2023
1/1 Ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi, 140-144 b., Toshkent 2023.

18.Otamuratov R.U. O‘SMIRLARDAGI KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlardagi-kasbiy-o-zligini-anglashidagi-xavotirlanishning-psixologik-xususiyatlari> (дата обращения: 30.01.2023).

19.Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). INTERNETNING SHAXSGA TA’SIRI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

20.Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA’SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

21.Uskanovich, O. R. (2022). PSIXOLOGIYADA XAVOTIRLANISHNING ILMIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 494-498.

22.Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA’SIRINING HISSIY OMILLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

23.Uskanovich, O. R., & Abdurazakovna, O. S. (2023). OILADA AYOLNING PSIXOLOGIK SAVODXONLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 25(4), 72-77.

24.Uskanovich, OR, & Abdurazakovna, OS (2023). INSON ONGINI OZIQLANTIRISH. *Yangi asr innovatsiyalari jurnali* , 25 (4), 67-71.

25.Yo‘ldoshyev, S., & Bosimova, M. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG‘LIQLIGI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8393>

26. Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O'QITISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O'QITIMLAR KELIB CHIQISHIGA TA'SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
27. Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
28. Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 658-662.
29. Norbekova, B. (2022). O'roqboyeva M. Maktabgacha ta'limda psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari*, 1(1), 481-483.
30. Norbekova, B. (2021). Socio-Psychological Characteristics of National Character. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed*, 7(1).
31. Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109.
32. Норбекова, Б. (2021). Духовно-нравственный образ семьи. *Общество и инновации*, 2(2/S), 123-128.
33. NORBEKOVA, B. (2021). Жамият ва инновациялар—Общество и инновации—Society and innovations.
34. Норбекова, Б. (2020). МИЛЛИЙ ХАРАКТЕР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*.